



Estrada – jazz fortepiano ijrochiligini o‘qitish metodikasi masalalari

Abdullayeva Setora Ergash qizi

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi

Botir Zokirov nomidagi milliy estrada

san’ati instituti magistranti

Annotatsiya: O‘zbekistonda jazz san’ati kirib kelganiga ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsada, yurtimiz san’at va madaniyatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Xatto musiqa maktablarda estrada va jazz fortepiano ijrochiligi mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim berish yo‘lga qo‘yilgan.

Ammo ko‘plab musiqa maktablarda jazz ijrochiligi bo‘yicha maxsus o‘quv qo‘llanmalar, ijro etish uchun asarlar (notalar) to‘plami kamligi tufayli ta’lim berayotgan ustozlarga bir muncha qiyinchilik tug’dirmoqda. Negaki jazz fortepiano ijrochiligini o‘rganaman degan bola maktabga o‘qishga kirganda to‘g‘ri ta’lim olish uchun ta’lim standartlaridan o‘tgan ma’lumotlar, notalar to‘plami va o‘quv qo‘llanmalar yetishmovchiligi tufayli unga berilayotgan ta’lim sifatsiz natija ko‘rsatish ehtimoli yuqori bo‘lib qolmoqda. Keyinchalik musiqa maktabni tamomlab san’at va madaniyat sohasidagi oliy o‘quv yurtlarga o‘qishga kirganda esa u egallagan bilimlar yetarli bo‘lmashligi tufayli ta’lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmoqda va o‘zidagi muammolarni tushunib, yechimini topguniga qadar qimmatli vaqti tugab qolmoqda. Endi bir o‘ylab ko‘raylik maktab davridan boshlab jazz haqida boshlang‘ich bilimlarni egallamasdan, kollej davrida ham bu bilimlarni egallamagan holatda 4 yillik oliy ta’limda jazz haqida qanday qilib yetarlicha bilimga ega bo‘lib chiqichi mumkin. Albatta oliy ta’lim muassasini bitirgach esa ma’lum bir ta’lim dargohida dars bera boshlaydi, o‘z ustida ishlagan, bilimlarini oshirgan holatda o‘quv jarayonini olib borsa-ku mayli, agarda o‘z ustida ishlamagan, ta’lim



jarayoniga yuzaki holatda qarab ma'lum bir o'quvchilar yetishtirgan bo'lsa qanday natija kutish mumkin. Ko'plab o'quvchilar va talabalar bilan bo'lgan muloqotlar natijasida yurtimizdagi musiqa va san'at maktablarida, maxsus musiqa kollejlari improvizatsiya, jazz tarixi haqida, jazz fortepiano ijrochiligi bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanmalar kamligi, topilgan taqdirda ham yosh jazzmusiqachilar mustaqil o'rganishi uchun oson, oddiy tilda yoritib berilgan kitoblar deyarli mavjud emas degan hulosalarga duch keldim. Afsuski haqiqatdan ham jazz tarixi va jazz ijrochiligi borasida bizning to'plagan ma'lumotlarimiz hozirgi yoshlarning qiziqish va salohiyatiga javob bermayaptimikan deb ham bazida o'ylab qolasz. Albatta har bir o'rganuvchi uchun eng qulay ma'lumotlar bazasi bu kitoblar va o'quv qo'llanmalar hisoblanadi. Jazz haqida o'quvchilar maktab va kollej davridayoq dastlabki bilimlarga ega bo'lishi lozim. Klassik musiqa haqida bilimlarni maktabdan boshlab o'quvchilarga singdirib boramiz, kollej davrida esa bu bilimlar anchagina mustahkamlanib boriladi. Xuddi shu singari jazz san'ati haqidagi bilimlarni ham maktab davridan boshlab o'quvchilarga bilimlarni berib borsak, kollej davrida esa bu bilimlar anchagina mustahkamlanardi. O'quvchilar esa jazz stillarini farqlashda keyinchalik qiyinchiliklarga duch kelishmaydi, oliy ta'lim muassasalarida esa bu bilimlarni amalda qo'llab har bir jazz stillari qanday ijro etiladi, qay tariqa kelib chiqqan, kimlar tomonidan yaratilgan, jazz garmoniyalari va nazariyasi haqida mustahkam bilimlarga ega bo'lishadi. Bu bilimlar esa ularning haqiqiy professional jazz ijrochisi bo'lib yetishishida ko'mak beradi. Buning uchun esa albatta bizga birinchi o'rinda kitoblar va o'quv qo'llanmalar kerak bo'ladi. Jazz san'atini o'rganishda faqatgina o'quv qo'llanmalarga suyanib qolish ham maqsadga muvofiq emas, negaki jazz bu asosan improvizatsiyadan iborat. Improvizatsiya esa professional jazz ijrochisi bo'lish uchun eng muhim omil hisoblanadi. Aslida jazz bu ma'lum bir asarniyoddan yoki notaga qarab ijro etishdan iborat bo'libgina qolmay, bunda improvizatsiya ham muhim rol o'ynaydi. Jazz bu mukammal san'at, unda ijro etuvchi guruhlar xuddi insonlar og'zaki nutqda qanday so'zlashishsa jazz ijrochilari ham musiqa tilida, o'z cholg'u asboblari orqali bir – birlari bilan o'zaro suhbatlashishadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki ular ayni ijro etayotgan daqiqalarda bir – birlarini tinglab ijro etayotgan musiqiy ohanglarini qalban his qilgan holatda ularga o'zlarining



improvizatsiya mahoratini qo'llaganholda javob qaytarishadi. Mana endi o'ylab ko'ring, professional jazz ijrochilar bilan biz tarbiyalayotgan jazz ijrochilarimiz qanchalik bir – biriga yaqin o'xshashlik mavjud. Jazzni yurtimizda rivojlantirish va haqiqiy o'zbek jazz san'atini kashf etish uchun biz avvalo isloh qilishni musiqa maktablari boshlashimiz lozim. Shu bilan bir qatorda jazz ijrochilik borasida malakali ustozlar bilan hamkorlikda inovatsion ta'lim shaklidagi o'quv qo'llanmalarni; rus, ingliz tilidagi mavjud o'quv qo'llanmalarni esa o'zbek tiliga tarjima qilib yosh avlodga yangilik berish va bilimlarini oshirish uchun imkoniyatlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq. Har bir qilingan o'quv – uslubiy qo'llanmalarda foydalanish uchun maxsus CD/DVD disklarda audio yozuvlar yoki video darsliklarni jamlab qo'llanma bilan birgalikda maktablar va o'quv yurtlariga topshirish orqali yosh jazz ijrochilarini mukammal va professional jazz ijrochilari etib tarbiyalashga erishish mumkin. Jazz tarixi fanlari o'qitilishi (Estrada va jazz ijrochiligi yo'nalishidagi o'quvchilar uchun) har bir viloyat maxsus musiqa va san'at kolleji hamda litseylarida keng qamrovli ravishda tartib bilan belgilab berilgan ta'lim standartlariga mos keladigan o'quv qo'llanmalar asosida shu jumladan yuqorida ta'kidlanganidek audio va video yozuvlar orqali mukammal dars jarayonini yo'lga qo'yish kerak. Bunda albatta dunyo jazz maktablarining o'quv jarayonlarini o'rganish lozim. Ularda qanday ma'lumotlardan, qanday o'quv qo'llanma va adabiyotlardan foydalaniladi, bular haqida ma'lumotlar almashish maqsadga muvofiq. Turli internet saytlardagi jazz tarixiga oid video filmlar va mashhur jazz ijrochilarining dunyo bo'ylab bergan konsertlaridan foydalanish, misol tariqasida: Bill Evans, Errol Garner, Oscar Piterson va boshqa ko'plab atoqli va professional jazz ijrochilari haqida olingan video materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari oliy o'quv yurtlarida o'qiydigan iqtidorli talabalardan foydalangan holatda barcha viloyatlardagi san'atga ixtisoslashtirilgan kollej va maktablarda jazz konsertlarini tashkil qilish, maxorat darslarini o'tish, yosh o'quvchilarga o'z bilimlarini ulashish va kelajakda jazz ijrochisi bo'lish niyatida bo'lgan yoshlarga o'z maslahatlarini va takliflarini bildirgan holatda to'g'ri yo'l ko'rsatish, yoshlarning qiziqishini oshirish bilangina ta'lim jarayonida ma'lum bir yutuqlarga erishishimiz mumkin. Hozirgi paytda ko'plab musiqa maktablarda jazz yo'nalishi mavjud



va imkoniyati bor musiqa maktablarda yosh jazz ijrochilari guruhlarini tashkil etish bilan ham ularning mahoratini va qiziqishini anchagina oshirishimiz mumkin. Albatta bunda ustozlar yordamida jazz asarlarini maktab o'quvchilariga moslashtirilgan shaklda ya'ni osonlashtirigan holatga ijro etishi uchun asarlarni sayqallash ham talab etiladi. Bunda esa albatta kompozitorlarga murojat etamiz. O'ylaymizki kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi bu borada o'z yordamlarini ayamaydi. Keyingi masala kollej davrida improvizatsiya fanlarini ham chuqurlashtirilgan holatda o'tish maqsadga muvofiq. Bunda albatta taniqli jazz ijrochilarining video yozuvlariga tayaniladi, jumladan Bill Evans, Errol Garner, Oscar Piterson, Keit Jarret va boshqa ko'plab jazz musiqachilari konsertlari tavsiya etiladi. Albatta yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir deb bejizga aytishmagan ulamolar. Biz yosh avlodga hozir o'rgangan bilimlarimiz qanchalik tez va erta ulashsak kelajakda yurtimiz san'at va ma'daniyat sohasida nafaqat san'at va madaniyat sohasida balki barcha sohalarda ham rivojlanish va o'sish suratlari tezlashadi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham aynan yoshlar ta'limiga juda katta e'tibor qaratib kelmoqdalar. Hech bir soxa chetda qolmayapti ilm – fanda ham, Axborot – texnologiyalarida ham, san'at va madaniyatda ham yoshlar ta'limiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Albatta bunday sharoitda yosh avlodni har bir kasbning o'z mutaxassislari chin yurakdan bor mahoratini ishga solgan holatda tarbiyalashga kirishsa natija kutilganidan ham yaxshiroq bo'ladi.

Hozirgi vaqtda jazz yo'nalishiga bo'lgan qiziqish yurtimizda juda jadal suratda rivojlanib bormoqda. Bunga sabab esa yoshlarning zamonaviy san'atga bo'lgan qiziqishi sabab bo'lmoqda. Biz yoshlarni bunday qiziqishlaridan foydalangan holatda jazz musiqasini ularga to'g'ridan to'g'ri ma'lumotlar orqali bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashimiz va o'zbek jazz san'atini rivojlantirishlariga hissa qo'sha oladigan yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlariga ko'mak berishimiz lozim. XXI asr texnologiya asri bo'lganidek yoshlar o'zlari ham o'rgana olishadi degan fikrlar noto'g'ri ekanligini, aslida jazz qanday ijro etilishi, jazz garmoniyalarining hususiyatlari haqida ma'lumotlarni ularga to'g'ri yetkazib berishimiz lozim. Aks holda yoshlar qiziqqonliklari tufayli jazz san'atini o'rganishda shoshqaloqlik qilib 'rgangan bilimlari va sarflagan vaqtlari qadrsizlanib



qolishi mumkin. Negaki “ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar” degan maqol ham bejizga aytilmagan.

Ushbu keltirilgan diagrammada esa jazz o‘rganayotgan o‘quvchilar duch keladigan muammolar keltirilgan:



Ushbu kamchiliklar deyarli har bir viloyatda, respublikadagi deyarli barcha san‘atga ixtisoslashtirilgan maktablarda mavjud. Afsuski Estrada va jazz ijrochilig kafedrası ba’zi viloyatlarda mavjud ham emas edi . Ammo bu holat hozirgi kunga kelib kamayib bormoqda. Mutaxassislarning ko‘payishi natijasida jazz ijrochiligi yurtimizda jadal sur‘atlarda rivojlanib bormoqda. Endilikda ushbu yo‘nalishda ta’lim olayotganlarga sifatli darsliklar tayyorlash muhim rol ahamiyat kasb etadi. Negaki jazz san‘ati haqida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ustozlari o‘qigan va o‘rgangan, bizlarga o‘rgatayotgan bilim va ma’lumotlarni yurtimizning har qaysi viloyati va har qaysi tumanlardagi yoshlar ham bilishi va o‘rganishi lozim. Ular bo‘ljak jazz ustalari bo‘lib yetishishi shunday harakatlarga bog‘liq.



Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Gioia, Ted. “The History of Jazz”. — Second Edition. — Oxford University Press, 2011. — 452 c. — ISBN9780195399707.
2. Верменич, Ю. Т. “Джаз. История. Стили. Мастера”. — СПб : Лань, Планета музыки, 2007. — ISBN 978-5-8114-0768-
3. Конен, В. Д. Рождение джаза. — М : nСоветский композитор, 1984. — 312 с.
4. Леонард, Г. Джаз / пер. с англ. Т. Новикова. — М : Эксмо, 2012. — 304 с. — (Мир культуры). — ISBN 978-5-699-53706-8.
5. Переверзев, Л. Б. «Приношение Эллингтону» и другие тексты о джазе / под ред. К. В. Мошкова. — М : Лань, Планета музыки, 2011. — 512 с. — (Мир культуры). — ISBN 978-5-8114-1229-7.